

## SHARQ VA G'ARBDA OILA MUNOSABATI QIYOSIY TAHLILI

**G‘aniyeva Charos G`ayrat qizi**

*Toshkent davlat transport universiteti (TDTU),  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi tayanch doktoranti (PhD),  
E-mail: [gcg1248@mail.ru](mailto:gcg1248@mail.ru), +998972220240*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sharq Renessans davri mutafakkirlari va G‘arb olimlarining oilaviy qarashlari aks ettirilgan. Oila jamiyatning eng asosiy bo‘gini sifatida qaraladi. Nikoh diniy, huquqiy va axloqiy asosda tartibga solindi. Oilada er va ayolning huquq va majburiyatlarini belgilab beriladi. Katta avlodning hurmati, ota-onaga xizmat, eng muhim qadriyat hisoblanadi sharq xalqlarida. Oila ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va diniy hayotning asosiy tayanchidir. Oila orqali ta’lim-tarbiya, o‘git va nasihatlar, kasb-hunar, urf-odatlar avloddan avlodga o‘tgan. Ayolning huquqi ko‘pincha cheklangan, ammo uning onalik maqomi yuksak baholangan. Farzand tarbiyasi va qadriyatlarni saqlash oilaning eng muhim funksiyasi ekanligi mazkur maqolada yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sharq, G‘arb, oila, sivilizatsiya, mutafakkir, renessans, Al- Xorazmiy, Beruniy, Farobi, Ibn Sino, Avreliy Avgustin, Boetsiy, Petr Abelyar, Xildegarda Bingenlik

**Abstract:** This article reflects the views of the Eastern Renaissance thinkers and Western scholars on the family. The family is considered the most basic unit of society. Marriage was regulated on a religious, legal and moral basis. The rights and obligations of husband and wife are determined in the family. Respect for the elder generation, service to parents are considered the most important values in the Eastern peoples. The family is the main support of socio-economic, legal and religious life. Through the family, education, teachings and advice, professions, traditions are passed down from generation to generation. A woman's rights are often limited, but her maternal status is highly valued. This article highlights that raising children and preserving values is the most important function of the family.

**Keywords:** East, West, family, civilization, thinker, Renaissance, Al-Khwarizmi, Beruni, Farouri, Ibn Sina, Aurelius Augustine, Boethius, Peter Abelard, Hildegard of Bingen.

IX-XII -asrlar Sharq allomalari jamiyatda oilaviy munosabatlarda axloq ta’lim- tarbiya masalalariga ham katta e’tibor bergan. Oila har qanday jamiyatning eng asosiy bo‘gini sifatida qaraladi. Oila atalmish qo‘g‘onning bunyod bo‘lishi nikoh qurishga bog‘liq. Nikoh hozirga qadar diniy, huquqiy va axloqiy asosda tartibga solib kelinmoqda. Oilada er va ayolning huquq va majburiyatlarini belgilab qolmasdan nikohni asrab-avaylash muqaddas dargoh sifatida qaralishi belgilab berilgan. Sharq xalqlari madaniyatida kattalarga hurmati, ota-onaga mehr-muhabbat, g‘amxo‘lik qilish eng muhim qadriyat hisoblanishi bejiz emas albatta. Naslni davom ettirish va farzand tarbiyasi oilaning bosh vazifasi hisoblanadi.

G‘arb (Yevropa)Xristian cherkovi nikohni muqaddas deb e’lon qilgan. Feodal jamiyatda oila mulkiy munosabatlar (meros, er egasi) bilan bog‘liq bo‘lgan. Nikohsizlik, zino va

ajralish qattiq taqiqlangan. Ayol eriga itoat qilishi shart deb qaralgan. Oila cherkovning nazorati ostida bo'lgan ruhoniylar nikohni tasdiqlagan.

Abu Nasr al-Farobiy «*Al-Madina al-Fadila*» («Fozil shahar», «*Ara' Ahl al-Madina al-Fadila*» (Fozil shahar aholisi qarashlari)) Al-Farobiy jamiyatning mukammal tartibi haqida yozgan. Unda oila jamiyatning eng kichik va eng muhim qismi sifatida talqin etiladi. U baxtli jamiyat uchun oilada axloqiy tarbiya asosiy o'rinda turishini ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino «*Tib qonunlari*» (*Al-Qanun fi't-Tibb*) «*Ishorat va tanbihat*» Ibn Sino asosan tibbiyot va falsafada mashhur bo'lsada, uning axloqiy-falsafiy qarashlarida oilaviy tarbiya, bola sog'lig'i va onaning mas'uliyati haqidagi qimmatli fikrlar bor. Masalan, qonunda bola parvarishi va oilada gigiyena masalalari batafsil yoritiladi.

Abu Rayhon Beruniy «*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*» (*Osor ul-Boqiya*), «*Hindiston*» (*Tahqiq ma lil-Hind*). Beruniy turli xalqlarning urf-odatlari, oilaviy an'analari va tarbiya uslublarini ilmiy qiyosiy o'rganadi. Hind oilalari, zardushtiy oilalar va islomiy oilalarning farqlarini taqqoslaydi.

Yusuf Xos Hojib «*Qutadg'u bilig*» bu asar davlat boshqaruvi, axloq va tarbiya haqidagi didaktik doston. Unda oiladagi hurmat, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi borasida qimmatli nasihatlar bor. Masalan: «Oila - davlatning tayanchi» degan tushuncha asos qilib olingan.

Ahmad Yassaviy «*Hikmatlar*» (*Diwani Hikmat*) garchi ko'proq tasavvufiy asar bo'lsada, unda oilada axloqiy poklik, sabr, o'zaro hurmat, ota-onaga itoat kabi masalalar juda ko'p takrorlanadi. Bu o'rta asrlarda ma'naviy hayot va oilaviy qadriyatlar nechog'lik uyg'un bo'lganini ko'rsatadi.

IX- XII asrlar Yevropasida falsafa asosan Xristian diniy qarashlar bilan bog'liq edi. Shuning uchun oilaviy munosabatlar masalasi ko'proq:

Injil va diniy qoidalar asosida,

Nikohning muqaddasligi,

Oilaning cherkov tomonidan boshqarilishi,

Ayol va erkak rollarini diniy doirada talqin qilish orqali izohlangan.

Avreliy Avgustin garchi u v-asrda yashagan bo'lsada, butun O'rta asrlarda uning ta'limoti asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Nikohni gunohdan saqlovchi yo'l sifatida ko'radi. U oilani "kichik cherkov" deb ataydi va erkakning rahbarlik rolini asoslaydi.

Boetsiy asosan (*Consolation of Philosophy*) «*Teskari falsafiy tasalli*» asari bilan tanilgan. Bu asarda oilaviy masalalar bevosita ko'p ko'tarilmasada, oila axloqiy mustahkamlikning asosi sifatida tilga olinadi.. Oila axloqiy kamolot uchun mакtabdir. Bu asar asosan siyosiy quvg'in davridagi ichki ruhiy tahlil va falsafiy suhbata asoslangan. U oilaga bag'ishlangan maxsus bob yozmagan, ammo ma'naviy-axloqiy mustahkamlikda oilaviy qadriyatlarini xotirjamlik manbai sifatida tilga oladi. Asarda baxt, boylik, obro', oila, farzandlar barchasi vaqtinchalik, lekin ularni to'g'ri axloqiy nuqtai nazardan baholash kerakligi aytildi. Shu sabab Boetsiyda oila kamolot mакtabi sifatida ramziy tarzda ko'rsatila.

Anselm Kenterberiylik «*Proslogion*» u oilani cherkovning bir qismi deb biladi. Anselm ayolning itoati va arning mas'uliyati Injil asosida tushuntiradi.

Xildegarda Bingenlik "Scivias" olim bu asarda ayolning oiladagi roli, poklik va onalik ramziy obrazlar bilan tushuntiriladi. Bu asar Hildegardaneng eng mashhur ilohiy vahiyalar to'plamidir. U 26 ta vahiyini o'z ichiga oladi va ularning ichida ayollar roli, poklik, onalik va oilaviy mas'uliyat haqidagi ramziy tushunchalar ko'p uchraydi. Asarda ayollar vazifasi, ruhiy poklanish, nikohning axloqiy qimmati haqida tushuntiriladi. U diniy va tasavvufiy qarashlari orqali ayollarning oiladagi o'rni, onalik va axloqiy poklikni targ'ib qiladi. Sharqdagi Yassaviyga qiyoslash mumkin. IX-XII asrlar Sharq Uyg'onish davri sifatida tanilgan. Bu davrda Markaziy Osiyo, Fors, Arab xalifaligi va undan tashqaridagi yirik ilmiy maktablarda falsafa, tibbiyat, fiqh, sotsiologiya va adabiyot gullab-yashnadi. Oila bu davr allomalari qarashida jamiyatning eng muhim va eng kichik "ixtisoslashgan hujayrasi" sifatida talqin qilindi. Al-Farobiy mukammal jamiyat modelini oiladan boshlaydi. "Fozil odamlar shahri" asarida baxtli shahar, fozil shahar aholisi hislatlari bayon qilib berilgan. Oila axloqiy yetuklikka tayanadi. Ibn Sino oila salomatlik va axloqiy tarbiyaning tayanchi ekanini ilmiy asosda tushuntiradi. Beruniy qiyosiy yondashuvni yo'lga qo'ydi. Turli xalqlarning oilaviy tartiblari va qadriyatlarini bir-biriga solishtirish bugungi etnologiya va sotsiologiyaning boshlang'ich poydevorini qo'ydi.

Yusuf Xos Hojib davlat boshqaruvi va oilaning uyg'unligini ta'kidladi: kuchli oila kuchli davlat. Ahmad Yassaviy tasavvufiy hikmatlarda oilani ruhiy poklanish maktabi sifatida ko'rsatdi. Sharq allomalari oila orqali. Jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni uzlucksiz avloddan avlodga yetkazish, Tarbiya va ma'naviyatni mustahkamlash, Ayolning onalik roli va erkakning rahbarlik mas'uliyatini diniy va axloqiy jihatdan asoslash, din, urf-odat va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirishni nazarda tutishgan. Bu qarashlar oilani shunchaki maishiy institut emas, balki falsafiy, huquqiy va iqtisodiy barqarorlikning tayanchi sifatida tushunishga yo'l ochgan. Faqat diniy doirada emas, balki axloqiy-falsafiy va ilmiy asosda izohlagan. Sharq falsafasida oilaga qaratilgan e'tibor ko'pincha praktik tavsiyalar (masalan, Ibn Sinoda bola parvarishi) va didaktik nasihatlar (Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviyda) bilan boyitilgan. G'arbda ayni davrda oilaga yondashuv ko'proq dogmatik-diniy bo'lgan (masalan, Avgustin, Anselm), Sharqda esa falsafiy va qiyosiy-antropologik asos ancha chuqur bo'lgan.

**Xulosa:** IX-XII asrlarda allomalar oilaviy munosabatlarda tarbiya va axloqni bir-biri bilan chambarchas bog'lashgan. Sharq va G'arb oilaviy munosabatlarni qiyosiy taqqoslashda jamiyatdagi insonlarning dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ilmiy asoslaymiz. Ilmiy qiyosiy yondashuv Beruniyda yaqqol ko'rindi. Falsafiy asos sifatida biz Farobiy va Ibn Sinoning asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Adabiy nasihat uslubi Yusuf Xos Hojib va Yassaviyning asarlarida aks etgan. IX-XII-asrlar G'arb falsafasida oilaviy qarashlar cherkov va Injil asosida shakllandi. Nikoh muqaddas institut sifatida tushunildi. Ayol va erkakning oiladagi roli qat'iy diniy asos bilan belgilandi. Sharqqa nisbatan G'arbda ilmiy antropologik yondashuv emas, ko'proq diniy-dogmatik tahlil ustun edi.

**REFERENCES:**

1. Abu Rayhon Beruniy. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. Tarjima: A. Muhammadjonov. Toshkent: Fan, 1968.
2. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. Tarjima va izohlar: A. Qayumov. Toshkent: Fan, 1971.
3. Farobi, Abu Nasr. *Fozil odamlar shahri*. Tarjimon: H. Karimov. Toshkent: Fan, 1993.
4. Forobi. "Savollar mohiyati. Tanlangan asarlar o'ylaydi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari", 172-173-betlar.
5. Ibn Sino. *Tib qonunlari*. Qisqargan holda tarjima, mas'ul muharrir: A. Sa'dullayev. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
6. Augustinus, Aurelius. *De Civitate Dei*. Translated by Henry Bettenson. London: Penguin Classics, 2003. Qarang: Kitob XIV, Bob 18–24 (Nikohning maqsadi va axloqiy ahamiyati haqida).
7. Abelard and Heloise. *The Letters of Abelard and Heloise*. Translated by Betty Radice. Penguin Classics, 2003.
8. Peter Abelard. *Historia Calamitatum*, trans. Henry Adams Bellows, Macmillan, 1922.
9. Boethius. *The Consolation of Philosophy*. Translated by H.R. James. Loeb Classical Library. Harvard University Press, 1918.
10. Hildegard of Bingen. *Scivias*. II.2, II.6, III.13–14. (Hart & Bishop transl., Paulist Press, 1990).